


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60730500 – Yo'l muhandisligi bakalavriat ta'lim yo'nalishining

MALAKA TALABI



Toshkent-2024

ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
Toshkent davlat transport universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil “25” 06 dagi 218 – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	6
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	6
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	10
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	12
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	12
	Bibliografik ma‘lumotlar	18
	Kelishuv varag‘i.....	19

1. Umumiy tavsifi

60730500 – Yo‘l muhandisligi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta‘limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talablari 60730500 – Yo‘l muhandisligi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

ta‘lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta‘lim muassasalarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Yo‘l muhandisligi – ishlab chiqarish texnika sohasidagi ta‘lim yo‘nalishi bo‘lib, O‘zbekiston Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi va O‘zbekiston temir yo‘llari aksiyadorlik jamiyati tarkibidagi va xususiy avtomobil va temir yo‘llarni, ko‘priklar, tonnellar va boshqa sun‘iy inshootlarni, shahar yo‘llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish, yo‘llarni ko‘kalamzorlashtirish korxonalarida loyiha-qidiruv ishlari, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, texnik-iqtisodiy hisoblash, loyiha ekspertiza ishlari, avtomobil va temir yo‘llarini qurish, qurilishni tashkil etish, rejalashtirish va boshqarish, ekspluatatsiya qilish, ishlar sifat nazoratini ta‘minlash, avtomobillar va poyezdlar harakat xavfsizligini ta‘minlashda muhandislik

hisoblashlarni qo‘llash, ularga algoritmlar tuzish va matematik ta‘minotini ishlab chiqish, yo‘l muhandisligida rahbarlik qilish kabi kasbiy ko‘nikmalarga yo‘naltirilgan inson faoliyati bog‘liq kompleks masalalar va kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

jahon tajribalariga asoslanib avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llarida texnik-iqtisodiy asoslash hisoblarini bajarish, loyiha-qidiruv ishlarini tashkil qilish, muhandislik qidiruv natijalarini qayta ishlash, avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llarini konstruksiyalarini belgilash, avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llarini loyihalash va loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, loyihalashni avtomatlashtirish, buning uchun avtomatlashtirilgan loyihalash kompleks dasturlaridan foydalanish, avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llarining loyihalarini ekspertiza qilish, loyiha yechimlarini baholash;

zamonaviy tajribalarga asoslanib avtomobil va temir yo‘llari hamda shahar yo‘llari qurilishi texnologiyalari va ularni tashkil etish, yo‘l qurilish materiallarini ishlab chiqarish, avtomobil yo‘llarini qurish, qurilishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, buning uchun yo‘l qurilish texnikalari va mexanizatsiyalaridan foydalanish, avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llarining qurilish, rekonstruksiya va ta‘mirlash ob‘yektlarida mualliflik nazoratini olib borish, yo‘l qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini sifatini baholash, avtomobil yo‘llaridagi sun‘iy inshootlarining muhandislik qidiruvi, ko‘prik, yo‘l o‘tkazgich, tonnel va metropoliten inshootlarning konstruksiyalarini loyihalash, qurish, ekspluatatsiya qilish, ta‘mirlash, rekonstruksiya va rehabilitatsiya qilish jarayonlarini tashkil qilish, avtomobil va temir yo‘llaridagi sun‘iy inshootlarning qurilish, rekonstruksiya va ta‘mirlash ob‘yektlarida mualliflik nazoratini olib borish, innovatsion yo‘l qurilish materiallarini ishlab chiqish, yo‘l qurilishida texnik nazoratni olib boorish, avtomobil va temir yo‘llarining qurilish, rekonstruksiya va ta‘mirlash ob‘yektlarida ishlar sifatini baholash;

avtomobil yo‘llarini obodonlashtirish, arxitektura-badiiy bezash, arxitektura-landshaft konstruksiyalash, loyihalash va loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, avtomobil yo‘llarini ko‘kalamzorlashtirish ekinlarini ekish, ularni parvarishlash agrotexnikasini tashkil qilish, sug‘orish tizimini takomillashtirish, yo‘llarni qurilish, rekonstruksiya va ta‘mirlash ob‘ektlarida ko‘kalamzorlashtirish ishlari nazoratini olib borish, avtomobil yo‘llarini ko‘kalamzorlashtirish uchun ko‘chatxonalarini barpo qilish, avtomobil yo‘llarini obodonlashtirish va jihozlash loyihalarini ishlab chiqish, yo‘llar holatini texnik baholash va diagnostika qilish, diagnostika natijalari asosida ta‘mirlash ishlarini belgilash, yo‘llarni ta‘mirlash va saqlash ishlarini tashkil qilish, avtomobil yo‘llarini ta‘mirlash va saqlash loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta‘minlash, yo‘l harakatini tashkil etish,

yo‘lning xavflilik darajasini baholash, avtomobil yo‘llarining qurilish, rekonstruksiya va ta‘mirlash ob‘ektlarida mualliflik nazoratini olib borish bilan bog‘liq bo‘lgan kompleks masalalarini qamrab oladi.

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob‘ektlarida qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha va o‘zgarishlar malaka talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqishda hisobga olinishi nazarda tutiladi.

60730500 – Yo‘l muhandisligi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgan taqdirda, professional ta‘lim muassasalarida ta‘limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

ilmiy-tadqiqot;
loyihaviy-konstruktorlik;
ishlab chiqarish-texnologik;
tashkiliy-boshqaruv.

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60730500 – Yo‘l muhandisligi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llarini loyihalash, qurish, ekspluatatsiya qilish, avtomobil va temir yo‘llaridagi sun‘iy inshootlar yo‘nalishlariga mos keluvchi ilmiy-texnik axborotlar, ilg‘or mahalliy va xorijiy tajribalarni bilishi, avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari, avtomobil va temir yo‘llaridagi sun‘iy inshootlarni loyihalash bo‘yicha o‘tkaziladigan tajriba maqsad va vazifalarini qo‘yish va o‘tkazish, loyihalashni avtomatlashtirishning standartlashtirilgan paketlari asosida matematik modellashtirish usullarini egallagan bo‘lishi;

internet tarmog‘idan eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma‘lumotlarni maqsadga yo‘naltirilgan holda qidirib topa olishi, avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va ulardagi sun‘iy inshootlarni loyihalash, qurish, ekspluatatsiyasini tashkil etish va boshqarish sohasida bajariladigan ilmiy-tekshirish ishlarini bajarishda qatnashish;

ratsionalizatorlik va ixtirochilik faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha ishni tashkil etish;

avtomobil va temir yo‘llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilishda muhandislik hisoblarini dasturiy ta‘minotini ishlab chiqish, avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va ulardagi sun‘iy inshootlarni loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish bo‘yicha ilmiy-texnikaviy ma‘lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma‘lumotlarni tizimlashtirish, yo‘l muhandisligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish, internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqida ma‘lumotni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish, hamda tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda xalqaro tajribalarga asoslanib tuzilgan dasturlar bo‘yicha avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va ulardagi sun‘iy inshootlarni qidiruv va loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish jarayonlarini tadqiq qilish, bajarilayotgan loyiha ishlari bo‘yicha matematik va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiq qilish, yo‘l muhandisligida qo‘llaniladigan mahsulotlar sifatini sertifikatlash qilish, standartlashtirishni ta‘minlash, texnologik jarayonlarni tahlil qilish, sintez qilish va optimallashtirish metodlarini qo‘llash;

avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va ulardagi sun‘iy inshootlarda kechadigan fizik-mexanik jarayonlarning matematik modellarini ishlab chiqish, ularni loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilishda muhandislik hisoblarini dasturiy ta‘minotini ishlab chiqish;

avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va ulardagi sun‘iy inshootlar elementlarini ishlash qobiliyatini aniqlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish va ishlanmalarni ishlab chiqish, yo‘l muhandisligi sohasida tadqiqot ishlarini olib borish va mavjud metodikalar bo‘yicha tajriba natijalariga ishlov berish, patent-ixtirolik ishi va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;

avtomobil va temir yo‘llari sohasidagi xorijiy va maxsus adabiyotlar, ilmiy texnikaviy ma‘lumotlar, chet elda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi yutuqlarni o‘rganish.

avtomobil va temir yo‘llarini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish va ishlanmalarni ishlab chiqish, avtomobil va temir yo‘llari sohasida tadqiqot ishlarini olib borish va mavjud metodikalar bo‘yicha tajriba natijalariga ishlov berish, patent-ixtirolik ishi va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish, avtomobil yo‘llari sohasidagi xorijiy va maxsus adabiyotlar, ilmiy texnikaviy ma‘lumotlar, chet elda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi yutuqlarni o‘rganish;

ko‘priklar va tonnellar yo‘nalishiga mos keluvchi ilmiy-texnik axborotlar, ilg‘or mahalliy va xorijiy tajribalarni bilishi, ko‘prik va tonnellar sohasidagi ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish, soha bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish, mavzu (topshiriq) bo‘yicha ilmiy-texnikaviy ma‘lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma‘lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish, amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalaridan foydalanish, ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish, yo‘l muhandisligi sohasida bajariladigan ishlarni takomillashtirish bo‘yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish.

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va ulardagi sun‘iy inshootlarni loyihalash va qurish ishlarini bajarish uchun boshlang‘ich ma‘lumotlarni to‘plashda majmuaviy qidiruv va o‘lchash ishlarini bajarish, yo‘l muhandisligi ishlatiladigan konstruksiyalarni zavod va poligonlarda ishlab chiqarish jarayonlarini tanlash, xom ashyolarga ishlov berish va mahsulotlarni ishlab chiqarish loyahasini tuzishni amalga oshira olishi, yo‘llar va ulardagi sun‘iy inshootlarni rehabilitatsiya, diagnostika va rekonstruksiya qilish uchun ularning texnik holatini tekshirish va baholash;

kompyuter texnologiyalari va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida avtomobil va temir yo‘llar va ulardagi sun‘iy inshootlarni qurilishini tashkil etish va loyihalash ishlarini bajara olish, yo‘l muhandisligi sohasi bo‘yicha bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzulari bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;

avtomobil va temir yo‘llari va ulardagi sun‘iy inshootlarni yangi zamonaviy konstruksiyalarini yaratishda loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish, ilm-fan sohasida ilmiy-tadqiqot institutlarida va laboratoriyalarida ilmiy-amaliy va tajribaviy tadqiqotlarni zamonaviy uslublar bo‘yicha o‘tkazish.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va ulardagi sun‘iy inshootlarni qurish va ekspluatatsiya qilishda ishni tashkil etish va boshqarish, muhandislik yechimlarida texnik-iqtisodiy tahlil, texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni aniqlash, amaliyotda avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va ulardagi sun‘iy inshootlarni qurish va ekspluatatsiyasida xalqaro standartlar uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo‘llash qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim;

avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari, ko‘prik, tunnel va metropolitenlarni qurish ishlarini bajarish uchun boshlang‘ich ma‘lumotlarni to‘plashda majmuaviy qidiruv va o‘lchash ishlarini bajarish, ko‘priklar va tonnellarini

konstruksiya zavod va poligonlarda ishlab chiqarish jarayonlarini tanlash, xom ashyolarga ishlov berish va mahsulotlarni ishlab chiqarish loyihasini tuzishni amalga oshira olishi, avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari, ko‘priklar va tonnellarni reabilitatsiya va rekonstruksiya qilish uchun ularning texnik holatini tekshirish va baholash;

kompyuter texnologiyalari va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari, ko‘priklar va tonnellarni qurilishini tashkil etish va loyihalash ishlarini bajara olish, yo‘l muhandisligi sohasi bo‘yicha bajarilayotgan ishlab chiqarish ishlari bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish, avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari qurish va ekspluatatsiya qilish sohalarida ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini loyihalash, texnologik jarayonlar va mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish, loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish, amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo‘llash.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslarni rejalashtirish, axborot texnologiyalar tizimini yaratish, ularning ekspluatatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari, mexanizmlarini ishlab chiqish, atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

muhandislik va konstruktorlik yechimlarini amaliyotga tatbiq qilish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish, ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish, fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorlarini qabul qilish, birlamchi ishlab chiqarish zveno ishini tashkil qilish va uni boshqarish, avtomobil va temir yo‘llari va ulardagi sun‘iy inshootlarni loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslarni rejalashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong‘in va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.

yo‘l muhandisligi sohasiga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq

etish, yo‘lsozlar jamoasi ishini tashkil qilish, fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorlarini qabul qilish, birlamchi ishlab chiqarish zveno ishini tashkil qilish va uni boshqarish, ko‘priklar va tonnellarni loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong‘in va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish, ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish mexanizmini ishlab chiqarish va monitoringini olib borish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

Loyihalar samaradorligini baholash;

Axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash;

Boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.

60730500 – Yo‘l muhandisligi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchisining kasbiy kompetensiyalariga quyidagi talablar quyiladi:

kasbiy faoliyatda tabiiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, matematik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo‘llay olishi;

og‘zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va meyorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g‘oya, taklif, ta‘rif va xulosalarni mantiqiy, to‘g‘ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, malaka oshirish va o‘z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o‘zgartirishga qodir bo‘lishi;

ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunishi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan baxtsiz hodisalarning oldini ola bilishi;

axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishni;

korxonaning maqsadi va strategiyasiga muvofiq uning xususiyatlari va mijozlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda sifat siyosatini yaratish hamda takomillashtirish bo‘yicha takliflar va chora-tadbirlar ishlab chiqishi;

ishlab chiqarishda muammolarning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish hamda ular takrorlanishining oldini olish choralarini ishlab chiqish uchun mijozlar,

ichki bo‘limlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot qilishga qodir bo‘lishi;

mahsulot sifatini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

meyoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

avtomobil va temir yo‘llaridagi sun‘iy inshootlarning turli tizimlari, ularni qo‘llash sohalari, tonnellar, suv o‘tkazuvchi quvurlar va metropolitenlarning turlari, konstruksiyalari, ko‘priklar, tonnellar va quvurlarni loyihalash va hisoblashni asosiy qoidalarini bilishi, hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi;

avtomobil va temir yo‘llaridagi sun‘iy inshootlar va metropolitenlar, suv o‘tkazuvchi quvurlarni qurishning zamonaviy usullari, qurilish va ekspluatatsiya uchun mashina, uskunalarni ishlata olishi, transport inshootlarining qurilishi jarayonlarini bajarish, ko‘prik va tonnellarini barpo etish texnologiyasini bilishi;

avtomobil va temir yo‘llaridagi sun‘iy inshootlar, ko‘priklar, tonnellar va suv o‘tkazuvchi quvurlarning ekspluatatsiyasi, asrash, tekshirish, diagnostikasi va sinovi, temirbeton va metall oraliq qurilmalar elementlarining yuk ko‘tarish bo‘yicha sinfini, nuqson va shikastlanishlarini hisobga olib ularning yuk ko‘taruvchanligini aniqlash, ta‘mirlash, kuchaytirish va rekonstruksiya qilishni bilishi;

sun‘iy inshootlarni qurishning turli texnologiyalari va ularning qurilishini tashkillashtirishni, qo‘llaniladigan mashina va mexanizmlarni, qurilish ishlarini rejalashtirishni, qurilishda ishlatiladigan yordamchi konstruksiyalar va vositalarni hisoblashni va konstruksiyalashni bilishi va ulardan foydalana olishi;

avtomobil va temir yo‘llaridagi sun‘iy inshootlar, ko‘priklar va tonnellarga ishlatiladigan materiallarni sifatini nazorat qilish va sertifikatsiyalash, ularning sifat jarayonlarini boshqarish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi;

avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va ulardagi sun‘iy inshootlar ko‘priklar, tonnellar va metropolitenlarni loyihalash, texnologik xujjatlarini tayyorlash va jarayonni nazorat qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi;

avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va ulardagi sun‘iy inshootlar, ko‘prik va tonnellarini konstruksiyalarini zavod (poligon) sharoitida ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun texnologik jihozlarga xizmat ko‘rsatish;

avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va ulardagi sun‘iy inshootlarni loyihalashni avtomatizatsiyalash tamoyillarini bilishi, ularni loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilishda tizimli yondoshuv mexanizmlarini tatbiq etish, ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali usullarini tanlash va qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lish.

avtomobil va temir yo‘llarni loyihalash, qurilishini tashkil etish va ishlarni bajarish loyihalarini ishlab chiqish metodikasi va ular asosida qurilish ishlarini amalga oshirish, yo‘l qurilishida qo‘llaniladigan konstruksiyalarni to‘g‘ri loyihalash, yo‘l qurilishida ratsional usullarni tanlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

avtomobil va temir yo‘llarni ekspluatasiya qilish va yo‘l xo‘jaligi bo‘yicha loyiha va ishlanmalardan ishlab chiqarishda samarali foydalanish, loyihalarni boshqarish, transport inshootlarining konstruksiyalarini to‘g‘ri tanlash, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish, bo‘lishi mumkin bo‘lgan havf-xatarlarni tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

avtomobil va temir yo‘l texnik holatini baholash va diagnostika qilish, avtomobil va temir yo‘l xo‘jaligini yuritish, yo‘l qurilish mashina va mexanizmlar majmuasidan samarali foydalanish usullarini tanlash va qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lish.

3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. O‘quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Umumiy Majburiy fanlar	2220	74	1-4, 7
1.01	O‘RT1104	O‘zbek (rus) tili	120	4	1
1.02	O‘EYAT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.03	XT11208	Xorijiy til	240	8	1,2
1.04	MMA112312	Muhandislik matematikasi	360	12	1,2,3
1.05	MKG11210	Muhandislik va kompyuter grafikasi	300	10	1,2
1.06	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.07	QF1206	Qurilishda fizika	180	6	2
1.08	YQMK1306	Yo‘l qurilish materiallari kimyosi	180	6	3
1.09	NM1304	Nazariy mexanika	120	4	3
1.10	MF1404	Muhandislik falsafasi	120	4	4
1.11	QAT1204	Qurilishda axborot texnologiyalari	120	4	2
1.12	YMI1704	Yo‘l muhandisligi iqtisodiyoti	120	4	7
1.13	YE1104	Yo‘l ekologiyasi	120	4	1
Avtomobil yo‘llarini loyihalash faoliyat turi bo‘yicha majburiy fanlar					

			2520	84	1-8
1.14	YMK11208	Yo‘l muhandisligiga kirish	240	8	1,2
1.15	YQDM13408	Yo‘l qidiruvi muhandisligi	240	8	3,4
1.16	YQM13408	Yo‘l qurilishi materiallari	240	8	3,4
1.17	GM13408	Geotexnika muhandisligi	240	8	3,4
1.18	AYL15614	Avtomobil yo‘llarini loyihalash	420	14	5,6
1.19	AYAL(C)17808	Avtomobil yo‘llarini avtomatlashtirilgan loyihalash (CAD)	240	8	7,8
1.20	AYSI1508	Avtomobil yo‘llaridagi sun‘iy inshootlar	240	8	5
1.21	AYQEQ167814	Avtomobil yo‘llarini qurish va ekspluatatsiya qilish	420	14	6,7,8
1.22	AEM16708	Aerodromlar muhandisligi	240	8	6,7
2.00		Tanlov fanlari	1680	56	1-8
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1680	56	1-8
Kvalifikatsiya		Yo‘l loyihalovchi muhandis (avtomobil yo‘llarini bo‘yicha)			
Avtomobil yo‘llarini qurish faoliyat turi bo‘yicha majburiy fanlar					
			2520	84	1-8
1.14	YMK11208	Yo‘l muhandisligiga kirish	240	8	1,2
1.15	YQDM13408	Yo‘l qidiruvi muhandisligi	240	8	3,4
1.16	YQM13408	Yo‘l qurilishi materiallari	240	8	3,4
1.17	GM13408	Geotexnika muhandisligi	240	8	3,4
1.18	AYL15612	Avtomobil yo‘llarini loyihalash	360	12	5,6
1.19	AYQ16712	Avtomobil yo‘llarini qurish	360	12	6,7
1.20	AYSI1508	Avtomobil yo‘llaridagi sun‘iy inshootlar	240	8	5
1.21	AYEQ17812	Avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish	360	12	7,8
1.22	AEM16708	Aerodromlar muhandisligi	240	8	6,7
2.00		Tanlov fanlari	1680	56	1-8
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1680	56	1-8
Kvalifikatsiya		Yo‘l qurilishi muhandisi (avtomobil yo‘llarini bo‘yicha)			
Avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiyasi faoliyat turi bo‘yicha majburiy fanlar					
			2520	84	1-8
1.14	YMK11208	Yo‘l muhandisligiga kirish	240	8	1,2
1.15	YQDM13408	Yo‘l qidiruvi muhandisligi	240	8	3,4
1.16	YQM13408	Yo‘l qurilishi materiallari	240	8	3,4
1.17	GM13408	Geotexnika muhandisligi	240	8	3,4
1.18	AYL15612	Avtomobil yo‘llarini loyihalash	360	12	5,6
1.19	AYSI1508	Avtomobil yo‘llaridagi sun‘iy inshootlar	240	8	5
1.20	AYQRQ16710	Avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish	300	10	6,7
1.21	AYEQ16714	Avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish	420	14	6,7
1.22	AYTST1808	Avtomobil yo‘llarini ta‘mirlash va saqlash texnologiyalari	240	8	8
2.00		Tanlov fanlari	1680	56	1-8
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1680	56	1-8
Kvalifikatsiya		Yo‘l ekspluatatsiyasi muhandisi (avtomobil yo‘llarini bo‘yicha)			
Avtomobil yo‘llarini arxitektura-landshaft konstruksiyalash faoliyat turi bo‘yicha majburiy fanlar					
			2520	84	1-8
1.14	YMK11208	Yo‘l muhandisligiga kirish	240	8	1,2

1.15	YQDM13408	Yo'l qidiruvi muhandisligi	240	8	3,4
1.16	YQM13408	Yo'l qurilishi materiallari	240	8	3,4
1.17	GM13408	Geotexnika muhandisligi	240	8	3,4
1.18	YKEAST15612	Yo'llarni ko'kalamzorlashtirish ekinlari agrotexnikasi va sug'orish tizimi	360	12	5,6
1.19	AYM167812	Avtomobil yo'llari muhandisligi	360	12	6,7,8
1.20	AYKALK16716	Avtomobil yo'llarini ko'kalamzorlashtirish va arxitektura-landshaft konstruksiyalash	480	16	6,7
1.21	YKKBE1804	Yo'llarni ko'kalamzorlashtirish uchun ko'chatxonalar barpo etish	120	4	8
1.22	AYShKOJ1508	Avtomobil yo'llari va shahar ko'chalarini obodonlashtirish va jihozlash	240	8	5
2.00		Tanlov fanlari	1680	56	1-8
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1680	56	1-8
Kvalifikatsiya		Arxitektura-landshaft loyihalash muhandisi (avtomobil yo'llarini bo'yicha)			
Avtomobil yo'llaridagi sun'iy inshootlar faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar					
			2520	84	1-8
1.14	YMK11208	Yo'l muhandisligiga kirish	240	8	1,2
1.15	YQDM13408	Yo'l qidiruvi muhandisligi	240	8	3,4
1.16	YQM13408	Yo'l qurilishi materiallari	240	8	3,4
1.17	GM13408	Geotexnika muhandisligi	240	8	3,4
1.18	AYM167814	Avtomobil yo'llari muhandisligi	420	14	6,7,8
1.19	AYSIL15612	Avtomobil yo'llaridagi sun'iy inshootlarni loyihalash	360	12	5,6
1.20	KKQIA1504	Ko'priqli o'tish joylarida qidiruv ishlari asoslari	120	4	5
1.21	AYSIM156718	Avtomobil yo'llaridagi sun'iy inshootlarni muhandisligi	540	18	5,6,7
1.22	AYSID1804	Avtomobil yo'llaridagi sun'iy inshootlar diagnostikasi	120	4	8
2.00		Tanlov fanlari	1680	56	1-8
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1680	56	1-8
Kvalifikatsiya		Sun'iy inshootlar muhandisi (avtomobil yo'llarini bo'yicha)			
Shahar yo'llari va ko'chalarini faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar					
			2520	84	1-8
1.14	YMK11208	Yo'l muhandisligiga kirish	240	8	1,2
1.15	YQDM13408	Yo'l qidiruvi muhandisligi	240	8	3,4
1.16	YQM13408	Yo'l qurilishi materiallari	240	8	3,4
1.17	GM13408	Geotexnika muhandisligi	240	8	3,4
1.18	AYM167814	Avtomobil yo'llari muhandisligi	420	14	6,7,8
1.19	SHYKSI1508	Shahar yo'llari va ko'chalaridagi sun'iy inshootlar	240	8	5
1.20	SHYTTR1508	Shahar yo'l-transport tarmoqlarini rejalashtirish	240	8	5
1.21	SHYKM167818	Shahar yo'llari va ko'chalarini muhandisligi	540	18	6,7,8
1.22	SHHMOT1604	Shahar hududlarini muhandislik obodonlashtirish va transport	120	4	6

2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1680	56	1-8
Kvalifikatsiya		Shahar yo‘llari muhandisi			
Aerodromlarni loyihalash va qurish faoliyat turi bo‘yicha majburiy fanlar					
			2520	84	1-8
1.14	YMK11208	Aerodromlar muhandisligiga kirish	240	8	1,2
1.15	YQDM13408	Yo‘l qidiruvi muhandisligi	240	8	3,4
1.16	YQM13408	Yo‘l qurilishi materiallari	240	8	3,4
1.17	GM13408	Geotexnika muhandisligi	240	8	3,4
1.18	AYM167814	Avtomobil yo‘llari muhandisligi	420	14	6,7,8
1.19	AEQL1508	Aerodromlarni qidiruv va loyihalash	240	8	5
1.20	AEAL(CAD) 1508	Aerodromlarni avtomatlashtirilgan loyihalash (CAD)	240	8	5
1.21	AEM167818	Aerodromlar muhandisligi	540	18	6,7,8
1.22	AEMQJ1604	Aerodromlarning muhandislik tarmoqlari va jihozlari	120	4	6
2.00		Tanlov fanlari	1680	56	1-8
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1680	56	1-8
Kvalifikatsiya		Aerodromlar muhandisi			
Yo‘l qurilish materiallari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish faoliyat turi bo‘yicha majburiy fanlar					
			2520	84	1-8
1.14	YMK11208	Yo‘l muhandisligiga kirish	240	8	1,2
1.15	YQDM13408	Yo‘l qidiruvi muhandisligi	240	8	3,4
1.16	YQM13408	Yo‘l qurilishi materiallari, buyumlari va konstruksiyalari	240	8	3,4
1.17	GM13408	Geotexnika muhandisligi	240	8	3,4
1.18	AYM167804	Avtomobil yo‘llari muhandisligi	420	14	6,7,8
1.19	AYSIM1508	Avtomobil yo‘llaridagi sun‘iy inshootlar muhandisligi	240	8	5
1.20	YQMKICHKL 1508	Yo‘l qurilishi materiallari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish korxonalarini loyihalash	240	8	5
1.21	YQMBKICHKU ITE167818	Yo‘l qurilishi materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish korxonalarini va ularda ishlarni tashkil etish	540	18	6,7,8
1.22	YQMBKSB 1604	Yo‘l qurilishi materiallari, buyumlari va konstruksiyalari sifatini baholash	120	4	6
2.00		Tanlov fanlari	1680	56	1-8
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1680	56	1-8
Kvalifikatsiya		Muhandis-texnolog (avtomobil yo‘llari bo‘yicha)			
Ko‘priklar va tonnellar faoliyat turi bo‘yicha majburiy fanlar					
			2520	84	1-8
1.14	MK11208	Mutaxassislikka kirish	240	8	1,2
1.15	MG13408	Muhandislik geodeziyasi	240	8	3,4
1.16	MQ13408	Materiallar qarshiligi	240	8	3,4
1.17	QM13408	Qurilish materiallari	240	8	3,4

1.18	GMZP15608	Gruntlar mexanikasi, zamin va poydevorlar	240	8	5,6
1.19	KTL15612	Ko‘priklar va tonnellarini loyihalash	360	12	5,6
1.20	KTQ1706	Ko‘priklar va tonnellarini qurish	180	6	7
1.21	TIE17808	Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi	240	8	7,8
1.22	KTQRTEB1804	Ko‘priklar va tonnellar qurilishini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish	120	4	8
1.23	TYM156714	Temir yo‘l muhandisligi	420		5,6,7
2.00		Tanlov fanlari	1680	56	1-8
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1680	56	1-8
Kvalifikatsiya		Ko‘priklar va tonnellar muhandisi (temir yo‘llar bo‘yicha)			
Temir yo‘llar qurilishi faoliyat turi bo‘yicha majburiy fanlar					
			2520	84	1-8
1.14	MK11208	Mutaxassislikka kirish	240	8	1,2
1.15	MS1304	Yo‘l - qurilish mashinalari	120	4	3
1.16	TYTEL13408	Muhandislik geodeziyasi	240	8	3,4
1.17	TYI13408	Qurilish materiallari va buyumlari	240	8	3,4
1.18	TYQM14508	Temir yo‘llar qurilishi va mexanizatsiyasi	240	8	4,5
1.19	MS1504	Metrologiya va standartlashtirish	120	4	5
1.20	TYTEL157816	Temir yo‘lni tadqiq etish va loyihalash	480	16	5,6,7
1.21	TYI16712	Temir yo‘l izi	360	12	6,7
1.22	TYQTER16708	Temir yo‘llar qurilishini tashkil etish va rejalashtirish	240	8	6,7
1.23	TYTTYL1804	Tezyurar va yuqori tezlikdagi temir yo‘llarni loyihalash	120	4	8
1.24	TYTfQPXX 1810	Temir yo‘ldan texnik foydalanish qoidalari va poezdlar xarakati xavfsizligi	120	4	8
2.00		Tanlov fanlari	1680	56	1-8
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1680	56	1-8
Kvalifikatsiya		Yo‘l qurilishi muhandisi (temir yo‘llar bo‘yicha)			
Temir yo‘llar ekspluatatsiyasi faoliyat turi bo‘yicha majburiy fanlar					
			2520	84	1-8
1.14	MK11208	Mutaxassislikka kirish	240	8	1,2
1.15	MS1304	Yo‘l - qurilish mashinalari	120	4	3
1.16	TYTEL13408	Muhandislik geodeziyasi	240	8	3,4
1.17	TYI13408	Qurilish materiallari va buyumlari	240	8	3,4
1.18	QMITM1404	Qurilish montaj ishlarining texnologiyasi va mexanizatsiyasi	120	4	4
1.19	MS1504	Metrologiya va standartlashtirish	120	4	5
1.20	ETYTL156716	Ekspluatatsiyadagi temir yo‘llarni ta‘mirlashni loyihalash	480	16	5,6,7
1.21	TYI16712	Temir yo‘l izi	360	12	6,7
1.22	TYQTE156712	Temir yo‘llar qurilishi texnologiyasi va tashkil etish	360	12	5,6,7

Bibliografik ma‘lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so‘zlar:

Avtomobil va temir yo‘llari tarmog‘ini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha davlat texnik yo‘l siyosatining mohiyati. Avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va sun‘iy inshootlarni loyihalashni tashkil etish. Avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va sun‘iy inshootlarining tasniflanishi va asosiy elementlari. Avtomobil va shahar yo‘llarini kesishish va tutashish joylarini loyihalash. Yo‘l poyini va yo‘l to‘shamasini loyihalash. Avtomobil magistrallarini loyihalash. Avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llarini loyihalashda avtomatlashtirilgan loyihalash texnologiyalari. Avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llarini jihozlash. Avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va sun‘iy inshootlarni qurish texnologiyalari. Yo‘l poyi va yo‘l to‘shamalari asoslarini qurish. Asfaltbeton va sementbeton qoplamalarini qurish. Avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va sun‘iy inshootlarni ekspluatatsiya qilishga tizimli yondashish. Avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va sun‘iy inshootlarni holatini va transport-foydalanish ko‘rsatkichlarini baholash. Avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va sun‘iy inshootlarni ta‘mirlash va saqlash bo‘yicha tadbirlarni rejalashtirish. Avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va sun‘iy inshootlarni saqlash va ta‘mirlash. Avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va sun‘iy inshootlarni rekonstruksiya qilish. Shahar yo‘l-ko‘cha tarmog‘ini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha davlat texnik yo‘l siyosatining mohiyati. Avtomobil yo‘llarini obodonlashtirish va jihozlash. Avtomobil yo‘llarini ko‘kalamzorlashtirish va arxitektura-badiiy bezash. Avtomobil yo‘llarini arxitektura-landshaft konstruksiyalash. Avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va sun‘iy inshootlardagi ko‘kalamzorlashtirish ekinlarini parvarishlash agrotexnikasi va sug‘orish tizimi. Avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va sun‘iy inshootlar, metropoliten, suv o‘tkazuvchi quvur, avtomobil yo‘llaridagi sun‘iy inshootlarni loyihalash, qurilish konstruksiyalari, qurilish ishlab chiqarishi, qurilish materiallari, muxandislik geologiyasi, gruntlar mexanikasi, zamin va poydevorlar, muhandislik geodeziyasi, aloqa yo‘llari, avtomobil yo‘llari, qurilishni tashkil etish, metrologiya, standartlashtirish, qurilish konstruksiyalari, qurilish mexanikasi, materiallar qarshiligi, qurilishni rejalashtirish, qurilishda mashina va mexanizmlar, yo‘l muhandisligi iqtisodiyoti, hayot faoliyati xavfsizligi, avtomobil va temir yo‘llari, shahar yo‘llari va sun‘iy inshootlarni saqlash, tekshirish, sinovi va diagnostikasi, ta‘mirlash, ekspluatatsiya va reabilitatsiya qilish.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta‘lim muassasalari hamda kadrlar iste‘molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Rektor  **B. Tulaganov**

202_ yil _____

Toshkent davlat transport universiteti

Rektor  **O.K. Abduraxmanov**

202_ yil “ _____ ” _____

M.O‘.

KELISHILDI:

O‘zbekiston Respublikasi

**Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta‘limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor  **M. Boltabayev**

202_ yil “ _____ ” _____

M.O‘.

**Termiz muhandislik-texnologiya
instituti**

Rektor  **O‘.Ch. Axmedov**

202_ yil “ _____ ” _____

M.O‘.

**O‘zbekiston Respublikasi Transport
vazirligi huzuridagi Avtomobil
yo‘llari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari-
bosh muhandis**

 **O.Ch. Adilov**

202_ yil “ _____ ” _____

M.O‘.


**O‘zbekiston Respublikasi
Transport vaziri o‘rinbosari**

 **I. Abdugafarov**

202_ yil “ _____ ” _____

M.O‘.

**Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi
“O‘zyo‘lko‘prik” klasteri
davlat muassasasi rahbari**

 **R.V. A‘zamov**

202_ yil “ _____ ” _____

M.O‘.

**Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi
“Avtomobil yo‘llaridan foydalanish va
texnik holatini tahlil qilish
boshqarmasi” boshlig‘i**

 **D.K. Pirnazarov**

202_ yil “ _____ ” _____

M.O‘.



**Toshkent davlat transport universitetida ishlab chiqilgan
60730500 – Yo‘l muhandisligi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka
talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim
muassasalari va asosiy kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ” _____ 2024 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O‘zbekiston Respublikasi Transport vaziri o‘rinbosari I.A.Abdugafarov, Toshkent davlat transport universiteti rektori O.K.Abduraxmanov va Toshkent arxitektura qurilish universiteti rektori B.Tulaganov, birgalikda Toshkent davlat transport universitetida ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o‘quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60730500 – Yo‘l muhandisligi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining Malaka talablari hamda o‘quv rejasini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 son, 2023 yil 10 oktabrdagi “Yo‘l xo‘jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-330-son qarorlari hamda O‘zR OTFIVning 2023-yil 9-iyundagi “Oliy ta‘limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2024-yil 20-maydagi “O‘z DSt 3557:2021 “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O‘zbekiston Respublikasi
Transport vaziri o‘rinbosari**

I.A. Abdugafarov

**Toshkent davlat transport universiteti
rektori**

O.K. Abduraxmanov

**Toshkent arxitektura qurilish universiteti
rektori**

B.Tulaganov

Toshkent davlat transport universitetida ishlab chiqilgan
60730500 – Yo‘l muhandisligi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy
ma‘lumotli magistrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar
mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasiga
TA Q R I Z

“Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta‘lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta‘lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg‘or jahon darajasiga muvofiqligini ta‘minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog‘liq.

60730500 – Yo‘l muhandisligi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasini O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli, O‘zR OTFIVning 2023-yil 9-iyundagi “Oliy ta‘limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2024-yil 20-maydagi “O‘z DSt 3557:2021 “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Magistratura mutaxassisligi o‘quv rejasini kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o‘zlashtirishi, amaliyotlarni o‘tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko‘nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta‘minlovchi mazmunda hamda kelgusida ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishlari uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

60730500 – Yo‘l muhandisligi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasini xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta‘lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilgan, magistrning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va


texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt budjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalarining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60730500 – Yo'l muhandisligi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha magistrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**TDTU, "Avtomobil yo'llarini qurish
va eksploatatsiya qilish" kafedrasi professori,
texnika fanlari doktori, professor**



I.S.Sodiqov

Toshkent davlat transport universitetida ishlab chiqilgan 60730500 – Yo‘l muhandisligi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma‘lumotli magistrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasiga
TAQRIZ

Toshkent davlat transport universitetida 60730500 – Yo‘l muhandisligi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi malaka talablarini ishlab chiqilgan.

60730500 – Yo‘l muhandisligi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasini xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta‘lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilgan, magistrning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg‘ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma‘lumotlarni tahlil qilishga keng o‘rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda talabaning kelgusida faoliyat olib boradigan obektlari misolida fan va texnikaning ilg‘or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta‘lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo‘yicha fanlar tarkibi, ularning o‘zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta‘minlangan bo‘lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan.

Malaka talablari va o‘quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste‘molchilari bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60730500 – Yo‘l muhandisligi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha magistrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasini oliy ta‘lim o‘quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo‘naltirilgan bo‘lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o‘z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

“Road Standart Test” MCHJ
qoshidagi sinov laboratoriyasi
boshlig‘i



M.M.Rasulov